



Talabani eng muhim o'ringa
qo'yadigan, ijodkorlik va shijoatga
boy Universitet

(www.cdu.ac.kr)

2026-yil kuzgi bosqich chet ellik talabalarni

**Yangi va 0' qishni ko' chirish
bo' yicha qabul nizomi**

2026. 6.

CHODANG UNIVERSITETI

MUNDARIJA

I Muhim malumotlar

1. Qabul yo'nalishlari va qabul soni	1
2. Qabul jadvali	2
3. Ariza topshirish shartlari	3
4. Ariza topshirish tartibi	4
5. Qabul(tanlov) tartibi	5
6. Topshiriladigan hujjatlar	5
7. Abituriyentlar uchun muhim eslatmalar	6
8. O'qish to'lovini qaytarish	7
9. Boshqa eslatmalar	7

II Topshiriladigan hujjat shakllari

1. Hujjatlar ro'yxati(yangi qabul,o'qishni ko'chirish)	8
2. Qabul arizasi(yangi qabul,o'qishni ko'chirish)	9~10
3. Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, foydalanish va taqdim etishga rozilik arizasi	11~12
4. Tarjimai hol va o'qish rejasi	13
5. Moliyaviy kafolat hujjati	14

1 QABUL YO'NALISHLARI VA QABUL SONI

□ YANGI QABUL

FAKULTET	QABUL YO'NALISHLARI	TA'LIM TILI	
		KOREYS TILI	INGLIZ TILI
Xalqaro fakultet	Koreys tili yo'nalishi	●	
	Xalqaro madaniyat va turizm yo'nalishi	●	
	Xalqaro kimyo va mashinasozlik yo'nalishi	●	
	Sport va salomatlik yo'nalishi	●	
	Xalqaro menejment yo'nalishi	●	●
	San'at va dizayn yo'nalishi	●	

※ Yuqorida ko'rsatilgan qabul yo'nalishlari o'zgarishi mumkin. O'zgarishlar yuz bersa, ular darhol universitetning qabul bo'yicha rasmiy saytida e'lon qilinadi.

※ Qabul kvotasi cheklanmagan holda talabalar tanlanishi mumkin. Biroq, o'qishni davom ettirishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin deb topilgan nomzodlar qabuldan chetlashtirilishi mumkin.

❑ O' QISHNI KO' CHIRISH

FAKULTET	QABUL YO'NALISHLARI	TA'LIM TILI	
		KOREYS TILI	INGLIZ TILI
Xalqaro fakultet	Koreys tili yo'nalishi	●	
	Xalqaro madaniyat va turizm yo'nalishi	●	
	Xalqaro kimyo va mashinasozlik yo'nalishi	●	
	Sport va salomatlik yo'nalishi	●	
	Xalqaro menejment yo'nalishi	●	●
	San'at va dizayn yo'nalishi	●	
Aviatsiya fakulteti	Aviatsiya texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi	●	
	Uchuvchisiz havo vositalari yo'nalishi	●	
	Samolyot ishlab chiqarish yo'nalishi	●	
	Shahar havo mobilligi yo'nalishi (UAM)	●	
Umumiy fakultet	Hamshiralik yo'nalishi	●	
	Tish gigiyenasi yo'nalishi	●	
	Aviatsiya parvozlarini boshqarish yo'nalishi	●	
	Aviatsiya turizmi va servis yo'nalishi	●	
Mehmonxona va oshpazlik, turizm fakulteti	Global g'arb oshpazligi yo'nalishi	●	
	Qandolatchilik, nonvoychilik va kafe yo'nalishi	●	
	Osiyo oshxonasi yo'nalishi	●	
	Dengiz oziq-ovqat madaniyati va turizm yo'nalishi	●	
Sport fakulteti	Sport murabbiyligi yo'nalishi	●	
	Ommaviy sport yo'nalishi	●	
Sog'lom turmush va hayot tarzi fakulteti	Soch parvarishi va go'zallik yo'nalishi	●	
	Kreativ makiyaj yo'nalishi	●	
	Teri parvarishi va kosmetika yo'nalishi	●	
	Ijtimoiy farovonlik yo'nalishi	●	
	Yoshlar ta'limi va maslahat yo'nalishi	●	
	Reabilitatsiya va sog'liqni saqlash yo'nalishi	●	
	Farmatsevtika va tibbiy boshqaruv yo'nalishi	●	
	Uy hayvonlarini parvarishlash yo'nalishi	●	

※ Yuqoridagi yo'nalishlar o'zgarishi mumkin. Agar o'zgarish bo'lsa, bu haqda universitetning qabul saytida darhol e'lon beriladi.

2 QABUL JADVALI

BO'LIM	QABUL JADVALI		IZOHLAR
Ariza topshirish va hujjatlarni taqdim etish	1-bosqich	2026.06.15.(Du) - 06.30.(Se)	- Shaxsan topshirish: Chodang universiteti Xalqaro almashinuv va ta'lim bo'limi - Pochta orqali: Jeonnam, Muan-gun, Muan-eup, Muan-ro 380 (Markaziy kutubxona 501-xona, Xalqaro almashinuv va ta'lim bo'limi) - Ma'lumot uchun: 061-450-1575
	2-bosqich	2026.07.06.(Du) - 07.24.(Ju)	
	3-bosqich	2026.08.03.(Du) - 08.07.(Ju)	
Suhbat	Belgilanmagan		Keyinchalik e'lon qilinadi
Natijalar e'lon qilinish kuni	1-bosqich	2026.07.03.(Ju)	Qabul qilinganlik xati va o'qish tolovini to'lash haqidagi hujjat beriladi.
	2-bosqich	2026.07.31.(Cho)	
	3-bosqich	2026.08.11.(Se)	
O'qish tolovi	Keyinchalik elon qilinadi		- Kwangju bankidagi belgilangan hisob raqamiga - Invoice (to'lov xati)da ko'rsatilgan muddatgacha
Yangi talabalar yig'ilishi	2026.08.24.(Du) rejalashtirilgan		Universitet hayoti bo'yicha tanishtiruv
O'qish boshlanishi	2026.09.01.(Se) rejalashtirilgan		Darslarga ro'yhatdan o'tish

※ Yuqoridagi muddatlar o'zgarishi mumkin. Agar o'zgarish bo'lsa, bu haqda saytda e'lon beriladi.

3 ARIZA TOPSHIRISH SHARTLARI

ASOSIY TALIM DARAJASI TALABLARI

BO'LIM	Xorijiy talabalar uchun qabul talablari (Oliy ta'lim to'g'risidagi qonun ijro nizomining 29-moddasi 2-qismi 6 va 7-bandlariga muvofiq)	
Umumiy	- Ota-onasi ham, talabaning o'zi ham xorijiy fuqaro bo'lib, boshlang'ich, o'rta va yuqori maktabni o'z ichiga olgan 12 yillik ta'lim jarayonini tamomlagan o'rta maktab bitiruvchisi (yoki bitirishi kutilayotgan shaxs) yoki unga teng ta'lim darajasiga ega deb tan olingan shaxs. - Qabul sanasi holatiga ko'ra amal qiladigan rasmiy til sertifikatiga ega bo'lishi kerak. Quyidagi shartlardan kamida bittasi bajarilishi lozim. - Koreys tili talabi Quyidagilardan kamida bittasi: 1.TOPIK 3-daraja yoki TOPIK IBT 3-daraja 2.Ijtimoiy integratsiya dasturining (KIIP) 3-bosqichi yoki undan yuqorisini tugatgan yoki oldindan baholash imtihonidan 61 balldan yuqori olgan 3.Sejong instituti (Sejong Hakdang) koreys tili o'rta 2-daraja kursini yoki undan yuqorisini tamomlagan Ingliz tili talabi (faqat ingliz tili trekiga murojaat qiluvchilar uchun) Quyidagilardan kamida bittasi: 1.TOEFL: 530 (CBT 197, iBT 71) va undan yuqori 2.IELTS: 5.5 va undan yuqori 3.CEFR: B2 va undan yuqori 4.TEPS: 601 ball (NEW TEPS 327 ball) va undan yuqori ※ Ingliz tili ona tili hisoblangan davlat fuqarolari yoki ingliz tili ona tili bo'lgan davlatlarda o'rta yoki oliy ta'limni tamomlagan talabalar ingliz tili talabi bajarilgan deb hisoblanadi.	
Yangi qabul	Umumiy qabul talablariga javob beradigan xorijiy fuqarolar	
O'qishni ko'chirish	2-bosqich	Koreya yoki xorijdagi 4 yillik rasmiy universitetda kamida 1-kursni yoki 2 semestri (yozgi va qishki semestrlar bundan mustasno) tamomlagan (yoki tamomlashi kutilayotgan) shaxs yoki kollej (professional universitet) bitiruvchisi (yoki bitirishi kutilayotgan shaxs).
	3-4 bosqich	Koreya yoki xorijdagi 4 yillik rasmiy universitetda kamida 2-kursni yoki 4 semestri (yozgi va qishki semestrlar bundan mustasno) tamomlagan (yoki tamomlashi kutilayotgan) shaxs yoki 2 yoki 3 yillik kollej yo'nalishini bitirgan (yoki bitirishi kutilayotgan) shaxs.

❑ QABUL TALABLARINI BAHOLASH MEZONLARI

○ FUQAROLIKNI TAN OLISH MEZONLARI


- Xorijiy fuqaro deganda Koreya Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxs tushuniladi.
- Ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega shaxslar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar xorijiy fuqaro sifatida tan olinmaydi.

○ Ta'limni tan olish mezonlari (yangi qabul uchun).

- Xorijdagi maktab yoki Koreyadagi xorijiy maktabda o'qiganidan qat'i nazar, boshlang'ich, o'rta va yuqori maktabning 12 yillik to'liq ta'lim dasturini tamomlagan shaxslarga qabul talablari bo'yicha malaka beriladi.
(Ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega shaxslar bundan mustasno.)
- 12 yildan kam ta'lim tizimiga ega mamlakatlarda boshlang'ich va o'rta ta'limning to'liq kursini tamomlagan xorijiy fuqarolarning ma'lumoti Koreya o'rta maktabi bitiruvchisi darajasiga teng deb tan olinadi.
(Asos: Boshlang'ich va o'rta ta'lim to'g'risidagi qonun ijro nizomining 98-moddasi 1-qismi 9-bandi.)
- 11 yillik yoki 12 yillik ta'lim tizimiga ega mamlakatlarda o'rta ta'limning oxirgi 3 yilini o'sha mamlakatda tamomlagan shaxslar o'rta maktab ta'limini tugatgan deb e'tirof etiladi.

4 ARIZA TOPSHIRISH TARTIBI

❑ ARIZA TOPSHIRISH TARTIBI VA QABUL JARAYONI



- Abituriyent universitet arizasi va kerakli hujjatlarni belgilangan muddatgacha albatta topshirishi kerak. (Aloqa ma'lumotlari ko'rsatilishi shart.)
- Topshirilgan qabul arizasi va boshqa hujjatlar qaytarilmaydi. Biroq, hujjatlarning asl nusxasi topshirilgan bo'lsa, ulardan nusxa olinib, asl nusxa bilan solishtirilgandan so'ng egasiga qaytariladi.
- Hujjatlar to'liq bo'lmasa, taqdim etilgan hujjatlar yoki ma'lumotlar yolg'on ekanligi aniqlansa yoki o'qishga kirish sababi (motivatsiyasi) aniq emas deb topilsa, abituriyent qabul jarayonidan chetlashtiriladi.

❑ Ariza topshirishda etibor beriladigan jihatlar

- Faqat bitta qabul yo'nalishiga ariza topshirish mumkin.
- Ikki marta ro'yxatdan o'tish taqiqlanadi: agar abituriyent bir nechta universitetga (universitet, sanoat universiteti, pedagogika universiteti yoki kollej) bir vaqtning o'zida qabul qilinsa, u faqat bitta universitetga ro'yxatdan o'tishi kerak. Agar bir nechta universitetda bir vaqtning o'zida ro'yxatdan o'tsa, barcha universitetlardagi qabul natijalari bekor qilinadi.

5 QABUL TARTIBI

□ Qabul mezonlari va hisoblash foizlari

YO'NALISH	Qabul mezonlarining foizi va ballari			IZOH
	HUJJATLARNI BAHOLASH	SUHBAT	UMUMIY BAHO	
Barcha yo'nalish	80%	20%	100%	

□ Ariza topshirish to'lovi

○ Ariza topshirishda 200 000 von qabul to'lovi to'lanadi.

6 TOPSHIRILADIGAN HUJJATLAR

BO'LIM	KERAKLI HUJJATLAR	IZOH
Umumiy	① Qabul arizasi [2-shakl, 3-shakl] — 1 nusxa ② Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, foydalanish va taqdim etishga rozilik to'g'risidagi ariza [4-shakl] — 1 nusxa ③ O'zini tanishtirish xati va o'qish rejasi [5-shakl] — 1 nusxa ④ Moliyaviy kafolat xati [6-shakl] — 1 nusxa ⑤ Xorijiy fuqarolikni tasdiqlovchi hujjat (ota, ona va talabning pasporti yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi) ⑥ Oilaviy munosabatlarni tasdiqlovchi hujjat — 1 nusxa ⑦ O'rta maktabni tamomlaganlik hujjatlari: Diplom (bitiruv guvohnomasi) — 1 nusxa Baholar varaqasi (transkript) — 1 nusxa ⑧ Moliyaviy imkoniyatni tasdiqlovchi hujjatlar: Moliyaviy kafil nomidagi kamida 16 million von miqdoridagi bank hisob qoldig'i to'g'risidagi ma'lumotnoma Bank operatsiyalari tarixi va boshqa tegishli hujjatlar ⑨ 3x4 o'lchamdagi fotosurat — 4 dona ⑩ Til bilish darajasini tasdiqlovchi hujjat — 1 nusxa	
O'qishni ko'chirish	① Universitetda o'qiyotganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma va baholar varaqasi 1 nusxa.	

□ Hujjat topshirishdagi etibor beriladigan jihatlar

○ Baholar varaqasi (transkript) va diplom (bitiruv guvohnomasi) quyidagi usullardan biri orqali tasdiqlanib topshirilishi kerak. Chet tilida rasmiylashtirilgan hujjatlar albatta koreys yoki ingliz tiliga tarjima qilinib, notarial tasdiqlangan holda topshirilishi lozim.

※ Notarial tasdiq yoki konsullik tasdig'i: xorijiy fuqarolar o'z mamlakatidagi notarial (yuridik) idorada hujjatlarini tasdiqlatishlari kerak.

① Apostille (Apostil) tasdig'ini olgan ta'lim hujjatlari (diplom, transkript va boshqalar)

② Apostil konvensiyasiga qo'shilmagan davlatlar uchun: Koreya elchixonasi yoki konsulligi yoxud Koreyadagi o'z mamlakati elchixonasi/konsulligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim hujjatlari

③ Xitoy Ta'lim vazirligi qoshidagi ta'lim va diplomlarni tasdiqlash markazi tomonidan berilgan ta'lim va diplomni tasdiqlash hisoboti (faqat Xitoyda ta'lim olganlar uchun)

○ Oilaviy munosabatlarni tasdiqlovchi hujjatlar koreys yoki ingliz tiliga tarjima qilinib, notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

○ Ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari koreys yoki ingliz tiliga tarjima qilinib, notarial tasdiqlanishi kerak. (Faqat Vetnam fuqarolari uchun.)

○ Asl nusxa bilan solishtirish talab qilinadigan barcha hujjatlar asl nusxasi bilan birga topshirilishi kerak.

Universitet asl nusxani tekshirib, tasdiqlaydi.

- Qabul arizasi va boshqa hujjatlar, asosan, shaxsan topshirilishi kerak. Agar zarur sabab tufayli pochta orqali yuborilsa, hujjatlar qabul muddati tugaydigan kuni soat 18:00 gacha universitetga yetib kelgan taqdirdagina qabul qilinadi.
- Agar topshirilgan hujjatlardagi ism-familiyalar bir-biridan farq qilsa, tegishli davlat sudi yoki konsulligi tomonidan berilgan bir shaxs ekanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak.
- Bitirishi kutilayotgan talabalar qabul qilingan taqdirda, o'qish boshlanishidan oldin yakuniy diplom yoki bitiruv guvohnomasini topshirishlari kerak.
- Universitet qo'shimcha hujjatlar talab qilsa, abituriyent ularni albatta topshirishi kerak. Taqdim etilmasa, qabul jarayonidan chetlashtiriladi.
- Qabul kvotasiga cheklov bo'lmasligi mumkin, biroq o'qishni muvaffaqiyatli davom ettira olmaydi deb baholangan shaxslar qabul qilinmasligi mumkin.

7 ABITURIYENTLAR UCHUN MUHIM ESLATMALAR

- Abituriyent barcha kerakli hujjatlarni belgilangan muddat ichida topshirishi kerak.
- Hujjatlarning soxtalashtirilgani yoki o'zgartirilgani aniqlansa, hatto qabul qilingandan keyin ham qabul yoki o'qishga qabul qilish bekor qilinadi.
- Arizada ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlari (manzil, telefon raqami) noto'g'ri bo'lsa yoki abituriyent bilan bog'lanishning imkoni bo'lmasa, qabul bekor qilinishi mumkin. Shu sababli aloqa ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, Xalqaro almashinuv va ta'lim markaziga (061-450-1575) bu haqda xabar berish kerak.
- Qabul jarayonidagi baholash natijalari oshkor qilinmaydi. Arizani qaytarib olish yoki topshirilgan yo'nalishni o'zgartirish mumkin emas.
- Topshirilgan hujjatlar qaytarilmaydi va belgilangan qoidalarga muvofiq universitet tomonidan saqlanadi.
- Yakuniy qabul uchun talaba tegishli davlat organlaridan viza (kirish ruxsati) olishi va belgilangan qoidalarga muvofiq Koreyaga kirishi kerak.
- 2021-yil mart oyidan boshlab xorijiy talabalar Koreyaga kirganidan 6 oy o'tgach, Milliy sog'liqni saqlash sug'urtasiga majburiy ravishda a'zo bo'lishlari kerak.
- Qabul arizasi koreys yoki ingliz tilida to'ldirilishi kerak.

8 O' QISH TO 'LOVINI QAYTARISH

- Muddat: ro'yxatdan o'tgandan so'ng, tegishli semestr boshlanishidan bir kun oldingacha.
- Murojaat uchun: Xalqaro almashinuv va ta'lim markazi (061-450-1575)
- Pulni qaytarish mumkin bo'lgan holatlar:
 - Ro'yxatdan o'tgandan keyin shaxsiy sabablar tufayli o'qishdan voz kechish.
 - Viza berish rad etilganda.
 - Koreyaga kirish imkoni bo'lmaganda.
- Kerakli hujjatlar:
 - 1.Universitetga to'langan kontrakt puli kvitansiyasining asl nusxasi — 1 nusxa
 - 2.Kontraktdan voz kechish arizasi (universitet belgilagan shaklda) — 1 nusxa
 - 3.Talabaniy yoki ota-ona (vakil)ning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi — 1 nusxa

9 BOSHQA ESLATMALAR

Ushbu qabul qo'llanmasida ko'rsatilmagan batafsil masalalar universitetning Qabul jarayonini boshqarish qo'mitasi tomonidan belgilanadi va amalga oshiriladi.

Noqonuniy yoki aldov yo'li bilan qabul qilinganligi aniqlansa, talaba o'qishga kirganidan keyin ham qabul natijasi yoki talabalik maqomi bekor qilinadi. Shuningdek, qoidabuzarlikda ishtirok etgan shaxslar va aloqador shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'riladi.

(서식 1)

서류 목록표(신·편입학)

지원 학과	
성명	
구분	학부 신·편입학

연번		제출여부
1	입학지원서	
2	개인정보 수집·이용·제공·동의서	
3	자기소개서 및 학습계획서	
4	재정보증서	
5	외국 국적 증명서	
6	가족관계증명서 (부모 여권 또는 신분증 사본, 중국 국적 지원자는 호구부 제출)	
7	학력증명서 ■ 신입생: 고등학교 졸업(예정)증명서 및 성적증명서 ■ 편입생: 고등학교 졸업증명서, 대학 4학기 이상의 성적증명서 및 재학증명서 (아포스티유 또는 영사확인을 받은 학력증명서 제출, 중국 내 학력·학위 취득자는 중국교육부 운영 학력·학위인증센터 발행 인증보고서 제출)	
8	재정능력 입증서류 재정보증인의 예금잔고 증명서(KRW 16,000,000이상, 신청일 기준 30일 이내 발급한 것)	
9	사진(3×4cm) 4매	
10	공인어학능력 성적표	

(서식 2)



초당대학교 신입학 지원서

<외국인 특별전형>

지원자	성명	(한글)	(영문)		사진 (3cm×4cm)
	국적		출생국		
	외국인등록번호				
	성별	남 · 여	생년월일	년 월 일	

지원학과	학과	전공
------	----	----

인적사항	지원자	주소	(-)	전화번호			
				휴대폰			
	보호자	성명		지원자와의 관계		직업	
		주소	(-)	전화번호		휴대폰	
	비상연락처	성명		지원자와의 관계		직업	
		주소	(-)	전화번호		휴대폰	

학력사항	학교명		기간	학교 평점 평균	
	초등학교		~		
	중등학교		~		
	고등학교		~		
	전문대학	졸업·수료·재학	~		
	최종졸업학교	졸업·수료·재학		~	
		주소			
	전화번호				

상기 본인은 위 사항에 허위 사실이 없음을 확인하고, 귀 대학교에 신입학 하고자 소정의 서류를 갖추어 제출합니다.											
20 년 월 일											
지원자 성명 (인)											
초당대학교 총장 귀하	수험번호* <table><tr><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td><td></td></tr></table> * 란은 기록하지 말 것										

(서식 3)



초당대학교 편입학 지원서

<외국인 특별전형>

지원자	성명	(한글)		(영문)		사진 (3cm×4cm)
	국적		출생국			
	외국인등록번호					
	성별	남 · 여	생년월일	년	월	

지원학과 및 편입유형	☐ 2학년 ☐ 3학년 ☐ 4학년	학부(과)	전공
----------------	--	-------	----

인적사항	지원자	주소	()		전화번호		
					휴대폰		
	보호자	성명		지원자와의 관계		직업	
		주소	()		전화번호		
	비상연락처	성명		지원자와의 관계		직업	
		주소	()		전화번호		
				휴대폰			

학력사항	고등학교	(졸업·수료)		학력기간: . . . ~ . . .	
	출신대학	대학(교)		총 취득학점	평점평균
		학과(부)		학점	취득성적 기준평점 /
		년 월 / 학년 (졸업 · 수료 · 재학)			
		주소			
	전화번호				

상기 본인은 위 사항에 허위 사실이 없음을 확인하고, 귀 대학교에 편입학 하고자 소정의 서류를 갖추어 제출합니다. 20 년 월 일 지원자 성명 (인)	
초당대학교 총장 귀하	수험번호*

* 란은 기록하지 말 것

(서식 4)

[Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ulardan foydalanish va taqdim etishga rozilik arizasi]

Ma'lumot oluvchi	Taqdim etish maqsadi	shaxsiy ma'lumotlar turlari	Saqlash muddati
<u>Oldingi o'qigan maktab</u>	<u>Ta'lim darajasi va talabalik ma'lumotlarini tekshirish</u>	<u>Yo'nalish, o'qishga kirgan sana, bitirgansana, talabalik holati, diplom raqami</u>	<u>4-yil</u>

■ Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish tafsilotlari

✘ Yuqoridagi shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etishga rozilik berishni rad etish huquqiga egasiz. Biroq, agar rozilik berilmasa, qabul jarayonini to'liq va to'g'ri amalga oshirishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin.

☞ Yuqorida ko'rsatilganidek shaxsiy ma'lumotlaringizni uchinchi shaxslarga taqdim etishga rozimisiz?"
☐ Ha ☐ Yo'q

■ Shaxsiy ma'lumotlardan reklama va targ'ibot maqsadida foydalanish tafsilotlari

Reklama maqsadi	Reklama va axborotdan foydalanish tartibi	Foydalaniladigan ma'lumotlar	Foydalanish muddati
Universitet yangiliklari va tadbirlar haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabar berish	<u>Universitet reklama va tadbirlar bilan bog'liq ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar qilish</u>	Ism, Telefon raqami	<u>2-yil</u>

✘ Yuqoridagi shaxsiy ma'lumotlardan reklama maqsadida foydalanishga rozilik berishni rad etish huquqiga egasiz.

☞ Yuqorida ko'rsatilganidek shaxsiy ma'lumotlaringizdan reklama maqsadida foydalanishga rozimisiz?" ☐ Ha ☐ Yo'q

■ Boshqa bildirishlar bo'yicha ma'lumot (✘ universitetning o'z vakolatidagi ishlarni bajarish uchun roziliksiz shaxsiy ma'lumotlar yig'iladigan holatlar haqida ma'lumot)

Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash sababi	Ma'lumot turlari	Yig'ish sababi yoki qonuniy asos	Saqlash muddati
<u>O'quv jarayonini boshqarish</u>	Ariza ma'lumotlari (tanlov turi, qabul yo'nalishi / ariza topshirilgan kafedra), ariza beruvchi ma'lumotlari (ism-familiya, chet ellik ro'yxat raqami, rasm, manzil, telefon raqami, mobil telefon raqami, elektron pochta, qo'shimcha telefon raqami), maktab ma'lumotlari (eng yuqori ta'lim darajasi, o'qiyotgan yoki bitirgan maktab nomi, bitirgan yoki bitirishi kutilayotgan yil, maktabning asosiy telefon raqami).	Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunni amalga oshirish nizomining 35-moddasi (qabul imtihoni ma'lumotlari)	<u>10-yil</u>

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunning 15-moddasi 1-bandining 3-qismiga muvofiq, ma'lumot egasining roziligsiz shaxsiy ma'lumotlar yig'iladi va ulardan foydalaniladi.

20 yil oy kun

Ariza beruvchining ismi-familiyasi : (Imzo)

Qonuniy vakil (talaba 14 yoshdan kichik bo'lsa) : (Imzo)

Chodang universiteti rektori

Chodang universitetiga yangi qabul va o'qishni ko'chirib o'tish uchun ariza topshirish bilan bog'liq holda, quyida ko'rsatilganidek shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ulardan foydalanish va taqdim etishni amalga oshirmoqchimiz. Mazmun bilan batafsil tanishib chiqqaningizdan so'ng, rozilik berish yoki bermaslik haqida qaror qabul qilishingizni so'raymiz

■ **Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanish tafsilotlari**

Yig'ish va foydalanish maqsadi	Yig'iladigan shaxsiy ma'lumotlar turlari	Saqlash muddati
Yangi talabalarni qabul qilishni boshqarish	Majburiy ma'lumotlar: ism, tanlangan yo'nalish (ariza berilgan kafedra), chet ellik ro'yxat raqami (yashash guvohnomasi raqami), jins, tug'ilgan sana, fuqarolik, tug'ilgan davlat, manzil, telefon raqami, mobil telefon raqami, elektron pochta manzili, vasiy (ota-ona) ismi, manzili, ariza beruvchi bilan qarindoshlik darajasi, kasbi, telefon raqami, mobil telefon raqami, ta'lim ma'lumotlari (maktab nomi: boshlang'ich maktab, o'rta maktab, yuqori maktab, kollej/texnik kollej — bitirgan / tugatmagan / o'qiyotgan holati, o'qish davri, manzil, telefon raqami). Ixtiyoriy ma'lumotlar: Qo'shimcha telefon raqami, ota-ona ismi, telefon raqami, manzil.	10-yil

✘ Yuqoridagi shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanishga rozilik berishni rad etish huquqiga egasiz. Biroq, agar rozilik berilmasa, qabul jarayonini to'liq va to'g'ri amalga oshirishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin.

☞ **Yuqorida ko'rsatilganidek shaxsiy ma'lumotlaringizni yig'ish va ulardan foydalanishga rozimisiz?**

☐ Ha ☐ Yo'q

■ **Maxsus identifikatsiya ma'lumotlarini yig'ish va ulardan foydalanish tafsilotlari (✘ fuqarolik ro'yxat raqami — rozilik asosida yig'ilishi mumkin emas)**

Yig'ish va foydalanish maqsad	Yig'iladigan shaxsiy ma'lumotlar turlari	Saqlash muddati
Chet elliklarni boshqarish	Chet elliklarni ro'yxatga olish raqami(ID card)	10-yil

✘ Yuqoridagi maxsus identifikatsiya ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik berishni rad etish huquqiga egasiz. Biroq, agar rozilik berilmasa, qabul jarayonini to'liq va to'g'ri amalga oshirishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin.

☞ **Yuqorida ko'rsatilganidek shaxsiy ma'lumotlaringizni yig'ish va ulardan foydalanishga rozimisiz?**

☐ Ha ☐ Yo'q

■ **Shaxsga oid maxfiy ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanish tafsilotlari**

Yig'ish va foydalanish maqsadi	Yig'iladigan shaxsiy ma'lumotlar turlari	Saqlash muddati
Talabalarning gigiyena va qulaylik (maishiy) sharoitlarini boshqarish	Kasallik nomi, ruhiy kasallik bor-yo'qligi, nogironlik bor-yo'qligi	10-yil

✘ Yuqoridagi maxfiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik berishni rad etish huquqiga egasiz. Biroq, agar rozilik berilmasa, qabul (o'qishga kirish) jarayonini to'liq va to'g'ri amalga oshirishda cheklovlar yuzaga kelishi mumkin.

☞ **Yuqorida ko'rsatilganidek maxfiy ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanishga rozimisiz?**

☐ Ha ☐ Yo'q

(서식 5)



자기소개서 및 학습계획서
Personal Statement/Study Plan

자기소개서 (Personal Statement)

**내용
(Content)**

학습계획서 (Study Plan)

**내용
(Content)**

상기 내용은 사실이며, 지원자 본인이 작성하였음을 확인합니다.
I certify that the information I have provided above is true to the best of my
knowledge and is written in by me.

20 년 월 일

지원자(Applicant)_____ 서명(Signature)_____

초당대학교 총장 귀하

(서식 6)

재정보증서 Statement of Financial Resource

지원자 인적사항 Applicant's Information

이름 Name	
전형구분 Admission Division	신입학 New Student ☐ 편입학 Transfer Student ☐ (2학년 ☐ , 3학년 ☐ , 4학년 ☐)
학과 Major	

재정보증인 정보 Financial Sponsor's Information

성명 Name	
직업 Occupation	
주소 Address	
연락처 Contact Info.	
지원자와의 관계 Relationship	

상기 학생(지원자)이 재학기간 중에 필요한 생활비 및 체재비 등 일체를 부담할 것을 보증합니다.

I hereby guarantee to sponsor the applicant for his/her study and stay during the school
years in the above manner.

20 년 월 일

위 재정 보증자 Sponsor : _____

서명 signature : _____